

DAVLAT BUDJETINING G‘AZNA IJROSI VA UNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Jurayeva Mohinur Norqul qizi

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi professori.

E-mail: jamshidtukhtabaev@gmail.com

MAQOLA MALUMOTI

ANNOTATSIYA:

MAQOLA TARIXI:

Received: 19.08.2025

Revised: 20.08.2025

Accepted: 21.08.2025

KALIT SO‘ZLAR:

*aznachilik, g‘azna
ijrosi, kassa kirimi,
kassa ijrosi, moliya,
kirim, davlat byudjeti..*

Maqolada davlat byudjeti tushunchasi va uning iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyati yoritilgan. Davlat byudjeti - bu jamiyatning turli talablarini qondirish maqsadida davlat tomonidan rejalashtirilgan va markazlashtirilgan pul mablag‘lari jamg‘armasi ekanligi ta’kidlanadi. Byudjet iqtisodiyotni rivojlantirish, hamda ijtimoiy sohada ilg‘or o‘zgarishlarni amalga oshirishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Mamlakat byudjeti har qanday rivojlangan davlatlar yalpi ichki mahsulotining yirik qismini qayta taqsimlash vositasi hisoblanadi: Byudjet iqtisodiyotni rivojlantirish bilan bir qatorda, ijtimoiy sohada ilg‘or o‘zgarishlarni amalga oshirishning zarur bazasi bo‘lib ham xizmat qiladi.

T.SH.Eshnazarov “byudjet” to‘g‘risidagi tushunchani quyidagicha talqin qiladi: “Byudjet - bu iqtisodiy kategoriya sifatida, jamiyatning ma’lum bir darajadagi talablarini qondirish maqsadida davlat va ishlab chiqarish subektlari o‘rtasidagi davlat pul mablag‘lari jamg‘armasini tashkil etish, taqsimlash va ishlatish jarayonidagi moliyaviy munosabatlardir” (T.SH.Eshnazarov. O‘zbekiston Respublikasida G‘aznachilik tizimi asoslari. Toshkent. Iqtisod-moliY. 2012).

I.G.Akperov “zamonaviy sharoitda byudjet - nafaqat qonun sifatida tasdiqlanadigan

yagona rejali hujjat, balki davlatning yagona moliyaviy siyosati asosida moliyaviy rejalashtirish va prognozlashtirish, moliya xo‘jalik tizimi tashkil qilinadigan asos hisoblanadi” (I.G. Akperov, I.A. Konoplyova, S.P. Golovach. Kaznacheyskaya sistema ispolneniya byudjeta v Rossiyskoy Federatsii. Uchebnoye posobiye. Knorus. Moskva. 2015. 10-st), I.N.Shulyak va N.P.Belotelovlar (Pod redaksii I.N. Shulyak, N.P. Belotelov. 3-izd. M.: Ekonomist, 2006. - s. 116.) byudjetni amaldagi moliyaviy tushunchalar birligi sifatida aks ettiradi. S.I.Lushina va V.A.Slepovalarning (Pod redaksii S.I. Lushina, V.A. Slepova. 2-izd. M.: Ekonomist, 2006. - s. 220.) fikriga ko‘ra “Davlat byudjeti pul mablag‘lari harakatini nazorat qilish bo‘yicha faoliyat quyidagi tamoyilni amalga oshirish bilan bog‘liq: davlat mablag‘lari fondining yagonaligi va g‘aznachilik mablag‘larini to‘plash va to‘lashda kassaning yagonaligi tamoyili”dir. Shu bilan bir qatorda Rossiyalik olim V.M.Rodionova “Davlat byudjeti – bu jamiyat va uning xududlari talabini qondirish maqsadida davlat qo‘lida yig‘ilgan milliy daromadni qayta taqsimlash iqtisodiy formasidir” degan fikrni bildirsa, Yevropalik olimlar Piter Etrill va Eddi Makleynining fikricha: “Byudjet – bu kelajak uchun moliyaviy reja. Uni ishlab chiqishda turli meyorlardan foydalaniladi. Ushbu meyorlar – bu bir birlik ishlab chiqarilgan mahsulot yoki iste‘mol qilingan resurslar birligiga to‘g‘ri keluvchi ishlab chiqarilgan mahsulotni ifodalovchi tabiiy va narxiy ko‘rsatkichdir” - deb ta‘riflangan (Piter Etrill, Eddi Makleyni. Finansi i buxgalterskiy uchety dlya nespetsialistov. Uchebnik. Alpino Publisher-2007.). Professor T.S.Malikov esa “Davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotni taqsimlashda vujudga keladigan iqtisodiy munosabatlar bilan davlatning moliyaviy rejasidan iborat” (T.S. Malikov, Davlat byudjeti .O‘quv qo‘llanma. Toshkent 2007.) deb ta‘rif beradi.

Yuqoridagi olimlarning turli xil qarashlarini tahlil qilgan holda hamda xilma-xil ta‘riflarni umumlashtirib, “Davlat byudjeti” to‘g‘risidagi tushunchani quyidagicha talqin qilamiz. Davlat byudjeti - bu jamiyatning ma‘lum bir darajadagi ijtimoiy, iqtisodiy va boshqa talablarini qondirish maqsadida davlat tomonidan rejalashtirilib tashkil etilgan markazlashtirilgan davlat pul mablag‘i jamg‘armasidir.

Davlat byudjeti davlat qo‘lida to‘planadigan jamiyat mahsulotlari qiymatini qayta taqsimlash bosqichlarini aks ettiruvchi daromadlar va xarajatlarning muhim iqtisodiy shakli sifatida faoliyat yuritadi. Bu esa, o‘z navbatida, byudjet ijrosini samarali amalga oshirishni taqozo etadi.

Ko‘plab byudjet sohasida ilmiy izlanishlar olib borgan iqtisodchi olimlar va mualliflar byudjet jarayonidagi ushbu bosqichning ahamiyatiga va maqsadiga aniqliklar kiritishgan, lekin unga atroflicha ta‘rif bermaganlar. Jumladan, rus olimlari professor V.D.Fetisovning

fikriga ko'ra, byudjetni ijro etish – bu byudjet jarayonining u yoki bu hududiy tuzilma asosiy moliyaviy rejasining hayotga tatbiq etilishini ifodalovchi eng mas'ul bosqichi hisoblanadi. Uning maqsadi daromadlarning o'z vaqtida va to'liq tushumi asosida byudjetlarda nazarda tutilgan davlat tadbirlarining yetarlicha moliyalashtirilishini ta'minlashdan iborat (Fetisov V.D. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. - M.: Yuniti, 2003, - s. 203.).

M.V.Romanovskiyning hisoblashicha, “byudjetni ijro etish tasdiqlangan federal, RF subektlari, mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlarining byudjetlari chegarasida daromadlar tushumini va xarajatlarning moliyalashtirilishini ta'minlash maqsadini o'z oldiga qo'ygan” (Finansi. Uchebnik pod redaksiyey professora Romanovskogo M.V. - M.: 2001, - 219 s.).

Bir qator mualliflar ijro deyilganda “byudjet jarayonining muhim bosqichini, ularni ijro etish jarayonida ijro etuvchi hokimiyat organlari, moliya va soliq organlari, kredit muassasalari, byudjetga soliq to'lovchilar va byudjet mablag'lari oluvchilari hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadigan byudjet mablag'larini safarbar etish va ulardan foydalanish harakatlari”ni tushunishadi (Byudjetnaya sistema Rossii. Uchebnik pod red. prof. Polyaka G.B. - M.: Yuniti - Dana, 1999.).

A.M.Godin, N.S.Maksimova, I.V.Podporinaning fikriga ko'ra byudjetni ijro etish deyilganda «byudjet mablag'larini shakllantirish va ulardan foydalanishga doir operatsiyalar yig'indisi» tushuniladi (Godin A.M., Maksimova N.S., Podporina I.V. Byudjetnaya sistema Rossiyskoy Federatsii. - M.: Danilov I.K., 2003, - 356 s.).

Shunday qilib, byudjetni ijro etish bosqichi «byudjet jarayonining muhim bosqichi», «byudjet mablag'larini safarbar etish va ulardan foydalanish harakatlari» sifatida ta'riflanadi.

Lekin ta'riflarda byudjetni ijro etish bosqichilarining “Byudjet to'g'risida”gi qonun (qaror)ni amalga oshirish, byudjet ijrosi ishtirokchilarining harakatlari kabi asosiy jihatlari ko'rsatilmagan. Faqatgina G.B.Polyak tahriri ostidagi darslikda byudjet ijrosining ishtirokchilari hamda ularning byudjet mablag'larini safarbar etish va ishlatish harakatlari ta'riflangan. G.B.Polyakning ta'riflashicha, byudjetni ijro etish – bu byudjet jarayonining muhim bosqichi, ularni ijro etish jarayonida ijro etuvchi hokimiyat organlari, moliya va soliq organlari, kredit muassasalari, byudjetga soliq to'lovchilar va byudjet mablag'lari oluvchilari hisoblangan yuridik va jismoniy shaxslar ishtirok etadigan byudjet mablag'larini safarbar etish va ulardan foydalanish harakatlari.

Byudjet ijrosi amalga oshiriladigan davr ham yana bir munozarali masala hisoblanadi. Ayrim manbalarda aytilishicha, byudjetni ijro etish byudjet hokimiyat va boshqaruvning

qonun chiqaruvchi (vakillik) organlari tomonidan tasdiqlanganidan keyin boshlanadi. Biroq, hatto navbatdagi moliya yili uchun byudjet qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda tasdiqlanib, imzolangan taqdirda ham byudjet hisobvaraqlariga daromadlarni o'tkazish, xarajatlarni moliyalash yanvar oyidan boshlab amalga oshirilishi kerak. Shuning uchun, byudjetni ijro etish tegishli yil uchun "Byudjet to'g'risida"gi qonun (tegishli xujjat) qabul qilinishi bilan boshlanadi, chunki uni amalga oshirilishi 1 yanvardan boshlanib, 31 dekabrda tugaydi (O'zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi. 26.12.2013).

Byudjet ijrosining doirasini aniqlash uchun byudjetni ijro etish bosqichi qachon tugashi to'g'risida bir qarorga kelish lozim. Amaliyotchi olimlar N.G.Ivanova, T.D.Makovnik, A.I.Fisenko va YE.A.Kuleshovaning fikrlariga ko'ra, byudjet ijrosi to'g'risidagi hisobotni tuzish va tasdiqlash bevosita byudjetni ijro etish bosqichiga kiritiladi (Fisenko A.I., Kuleshova YE.A. Kaznacheyskoye ispolneniye gosudarstvennogo byudjeta RF. - Vladivostok: Izdatelstvo DGU, 1999, 98 s; Ivanova N.G., Makovnik T.D. Kaznacheyskaya sistema ispolneniya byudjetov. - SPb: Piter, 2001, - 13 s.).

Bizningcha, byudjetni ijro etish jarayoni joriy yilda byudjet majburiyatlarini bajarish nihoyasiga yetganidan keyin tugaydi. YA'ni byudjet ijrosi to'g'risidagi yillik hisobot byudjetni ijro etish jarayoniga kiritilmaydi. Ayni paytda moliya organlarining byudjet ijrosi to'g'risidagi tezkor hisobotlarini byudjetni ijro etish jarayonining tarkibiy qismi deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

O'zbekiston Byudjet kodeksining 109-moddasida esa Byudjet tizimi byudjetlarining ijrosi byudjet to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan byudjet tizimi byudjetlari daromadlarining tushishini ta'minlash va xarajatlarini amalga oshirishni, shuningdek ularning ijrosi bilan bog'liq operatsiyalarni hisobga olishni nazarda tutadi deb belgilangan (O'zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksi. 26.12.2013).

Byudjet ijrosini amaliyotchi olim T.SH.Eshnazarov "umuman va har bir manbaa bo'yicha daromadlarning to'liq hamda o'z vaqtida kelib tushishini, shuningdek byudjet tashkilotlari va muassasalarining tovarlari va xizmatlari uchun byudjet bo'yicha tasdiqlangan summalar doirasida to'lovlarning moliyaviy yil mobaynida to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishini ta'minlovchi jarayondir" (T.SH.Eshnazarov. O'zbekiston Respublikasida G'aznachilik tizimi asoslari. Toshkent. Iqtisod-moliY. 2012.) deb ta'kidlaydi.

Byudjet ijrosining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- soliqlar va boshqa to'lovlarning, shuningdek umuman va har bir manba bo'yicha daromadlarning to'liq hamda o'z vaqtida kelib tushishini ta'minlash;
- byudjet tasdiqlangan moliyaviy yil davomida byudjet bo'yicha tasdiqlangan

summalar doirasidagi tadbirlarni moliyalashtirish;

- tasdiqlangan byudjetning barcha turdagi to'lovlari va mablag'lar ajratilishini to'g'ri va iqtisodiy asoslangan tarzda taqsimlash.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib, bizning nazarimizda, byudjetni ijro etish deyilganda byudjet jarayoni davomida byudjet ijrosi ishtirokchilari tomonidan tegishli darajadagi byudjet to'g'risidagi qonun (tegishli xujjat, byudjetnoma)larni ijro etadigan, byudjet yilini qamrab oluvchi bosqichni tushunish maqsadga muvofiqdir. Byudjetni ijro etish bosqichining maqsadi – byudjet to'g'risidagi qonun (tegishli xujjat, byudjetnoma)ni tasdiqlangan ko'rsatkichlarga muvofiq bajarishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yefimova O.V. Finansoviy analiz: sovremenniy instrumentariy dlya prinyatiya ekonomicheskix resheniy. /ucheb. / O.V. Yefimova. - 5-ye izd., ispr. - M.: Omega-L, 2014. - 348s.
2. Kazakova N.A. Finansoviy analiz. /ucheb i praktikum / N.A. Kazakova. - M.: Yurayt, 2014. - 539 s.
3. Brealey R.A., Mers S.C. Principles of corporate finance. McGraw-Hill, 2003.
4. Kumri Nomozova. Organizational and economic modeling of the system of interregional industrial cooperation as a control object. Proceedings of the 7th International Conference on Future Networks and Distributed Systems. 2023. – p. 333-343.
5. Kumri Isoyevna Nomozova. Problems of security of economic and ecological systems in the countries of the central Asian Region. International Conference on Next Generation Wired/Wireless Networking. 2023. – p. 177-195.
6. Kumri Nomozova. Evolyusiya teorii predprinimatelskogo riska v rabotax vidayushixsya uchenix proshlogo. Peredovaya ekonomika i pedagogicheskie texnologii. 2025. – c. 581-587.
7. Nomozova Qumri Isoevna. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq risklarni sug'urta vositasida boshqarish usullari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. - 4-7 b.
8. Kumri Nomozova. Mikrostraxovanie kak innovatsionniy mexanizm upravleniya riskami malogo biznesa. Ekonomicheskoe razvitie i analiz, 2024. - s. 338-345.
9. Qumri Nomozova. Biznes risklarini sug'urtalash: zamonaviy sharoitlarda asosiy turlari va ularning xususiyatlari. Moliya va bank ishi. 2024. – 44-48 b.
10. Qumri Nomozova. Moliyaviy hisobotlar va ularni tuzish va auditorlik tekshiruvidan o'tkazishning uslubiy jihatlarini rivojlantirish. Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024.

11. Qumri Nomozova. O'zbekistonda tadbirkorlik tavakkalchiliklari sug'urtasini rivojlantirish istiqbollari. Straxovoy rinok Uzbekistana. 2024. – 7-10 b.
12. B.E.Toshmurodova Korporativ moliya strategiyasi– T.: “Iqtisod- moliya”, 2013. – 128 b.
13. Vahobov A.V., Malikov T.S. MoliY. Darslik. – T.: “Sharq”, 2010. – 804 b.
14. Van Xorn D.K. Osnovi upravleniya finansami/ D.K.Van Xorn; Per.s angl.; Gl. red. serii Y.V.Sokolov. -M: Finansi i statistika, 1996. - 800 s: il.
15. Public Finance: A Contemporary Application of Theory to Policy, Tenth Edition. David N. Hyman. 2010, 2011 South-Western, Cengage Learning
16. Malikov T., Jalilov P. Byudjet-soliq siyosati. – T.: “Akademnashr”, 2011. – 472 b.

